



O‘ZBEKISTON MILLIY IQTISODIYOTINING MODERNIZATSIYASI VA XALQARO INTEGRATSIYASINI CHUQURLASHTIRISH: ISLOHOTLAR TAHLILI, MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR

Mualliflar: Maksudov Mashxurbek ¹, Usmonov Davlatjon ²

Affiliyatsiya: Xalqaro Nordik universiteti Ta'lim sifatini rivojlantirish bo'limi boshlig'i ¹,
Xalqaro Nordik universiteti Iqtisodiyot yo'nalishi talabasi ²

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.17563751>

ANNOTATSIYA

Ushbu ilmiy ishda O'zbekiston Respublikasida milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va xalqaro iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtirish jarayonlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda iqtisodiyotning diversifikatsiyasi, sanoatni raqamlashtirish, yashil iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish hamda xalqaro savdo aloqalarining kengayishi bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar o'rganiladi. Shuningdek, global iqtisodiy tendensiyalar fonida mavjud muammolar va istiqbolli yechimlar tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: modernizatsiya, xalqaro integratsiya, diversifikatsiya, yashil iqtisodiyot, raqamli transformatsiya, barqaror rivojlanish.

KIRISH

So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiy siyosati chuqur tarkibiy o'zgarishlar, modernizatsiya, innovatsion rivojlanish va xalqaro integratsiyani kengaytirish jarayonlarini amalga oshirmoqda. Mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiya qilish zarurati global raqobatning kuchayishi, raqamli texnologiyalarning rivojlanishi, barqaror rivojlanish tamoyillarini amalga oshirish zarurati bilan bog'liq.

“O'zbekiston-2030 strategiyasi”da mamlakatimizni uzoq muddatli rivojlantirish konsepsiyasi sifatida milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, innovatsion salohiyatni mustahkamlash, eksportga yo'naltirilgan va diversifikatsiyalangan ishlab chiqarish tizimini yaratish kabi vazifalar belgilangan. Bu strategiya iqtisodiyotni modernizatsiya qilish jarayonida inson kapitalini mutanosib rivojlantirish, ilmiy-texnikaviy taraqqiyot, ekologik barqarorlikni ta'minlashni nazarda tutadi.

Raqamli transformatsiya ham iqtisodiy modernizatsiyaning ajralmas qismi hisoblanadi. Bugungi kunda mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotida raqamli iqtisodiyotning ulushi bosqichma-bosqich oshib bormoqda. Davlat boshqaruvi, soliq tizimi, moliya sektori, transport va energetika sohalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining joriy etilishi ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, shaffoflikni oshirish, inson xatolarining kamayishiga olib keldi.

Xalqaro integratsiyani chuqurlashtirish barqaror milliy iqtisodiy o'sishni ta'minlashning muhim omilidir. So'nggi yillarda O'zbekiston jahon iqtisodiy tizimiga faol integratsiyalashuvi, xalqaro savdo tashkilotlariga a'zo bo'lishni jadallashtirish, mintaqaviy va global sarmoya oqimida ishtirok etish orqali o'z iqtisodiy salohiyatini mustahkamlamoqda. Shu bilan birga, xorijiy hamkorlar bilan texnologik, ilmiy va

moliyaviy hamkorlikni kengaytirish milliy ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, raqamli va yashil iqtisodiyotni rivojlantirishga zamin yaratmoqda.

O'zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiya qilishning asosiy maqsadi barqaror, raqobatbardosh va innovatsion iqtisodiy tizimni yaratish va xalqaro integratsiya orqali mamlakatni jahon bozorining teng huquqli ishtirokchisiga aylantirishdan iborat. Shu ma'noda milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, xalqaro integratsiyani chuqurlashtirish mamlakatimiz iqtisodiy xavfsizligini mustahkamlash, eksport salohiyatini kengaytirish, aholi farovonligini yuksaltirishga xizmat qilmoqda.

1. Milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilishning hozirgi holati.

O'zbekiston iqtisodiy taraqqiyotining hozirgi bosqichida modernizatsiya jarayonlari mamlakatimiz barqaror rivojlanish strategiyasining o'zagini tashkil etadi. Keyingi yillarda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar, xususan, sanoatni texnologik modernizatsiya qilish, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, ishlab chiqarish tarmoqlarini diversifikatsiya qilish, yashil iqtisodiyot tamoyillarini hayotga tatbiq etish iqtisodiy o'sishni yangi bosqichga ko'tarmoqda.

2024-yil yakuniga ko'ra O'zbekistonda yalpi ichki mahsulot 5,5 foizga, sanoat ishlab chiqarishi esa 6,8 foizga o'sdi. Xizmat ko'rsatish sohasi yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 47 foizgacha oshirdi, bu esa iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlardan dalolat beradi (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi, 2025 yil). Qishloq xo'jaligi samaradorligini oshirish, transport-logistika tizimini modernizatsiya qilish, energetika sohasini diversifikatsiya qilishda ham salmoqli yutuqlarga erishildi.

Sanoat tarmoqlarini diversifikatsiya qilish iqtisodiyotni modernizatsiya qilishning asosiy yo'nalishlaridan biridir. Neft-gaz, metallurgiya, kimyo, elektrotexnika, farmatsevtika, qurilish materiallari, to'qimachilik sanoatida yangi ishlab chiqarish quvvatlari ishga tushirildi. Xususan, yuqori qo'shimcha qiymatga ega tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish sezilarli darajada oshdi. Bu nafaqat eksport salohiyatini kengaytiradi, balki importga qaramlikni kamaytirishga ham yordam beradi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish ham davlat siyosatining asosiy yo'nalishi bo'lib qolmoqda. 2024-yilda kichik biznesning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 56 foizni tashkil etdi. Ularning moliyaviy ko'magi, imtiyozli kreditlash va soliq imtiyozlari tufayli startaplar soni 20 foizga oshdi. Xususan, innovatsion faoliyat bilan shug'ullanayotgan yosh tadbirkorlar safi tobora kengayib borayotgani iqtisodiyotda yangi g'oya va texnologiyalarning paydo bo'lishini rag'batlantirmoqda.

Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish modernizatsiya jarayonining hal qiluvchi tarkibiy qismidir. "Raqamli O'zbekiston – 2030" dasturi doirasida davlat boshqaruvi, soliq va bojxona tizimlari, moliya sektori, sog'liqni saqlash, ta'lim, transport sohalarida raqamli texnologiyalar keng joriy etilmoqda. 2025 yilga qadar 400 dan ortiq davlat xizmatlarini to'liq raqamlashtirish rejalashtirilgan bo'lib, bu byurokratik to'siqlarni kamaytirish, samaradorlikni oshirish va korrupsiyaning oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, energiya samaradorligini oshirish va yashil iqtisodiyotga o'tish borasida ham sezilarli yutuqlarga erishildi. Qayta tiklanadigan energiya manbalarining ulushi 2024-yilga borib 12 foizga yetdi. Quyosh va shamol elektr stansiyalarini ishga tushirish, chiqindisiz texnologiyalarni joriy etish, ekologik standartlarni yanada qat'iylashtirish kabi chora-tadbirlar barqaror rivojlanish maqsadlariga mos keladi.

2. Xalqaro iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtirish jarayonlari.

Keyingi yillarda O'zbekiston mintaqaviy va jahon iqtisodiy tizimiga faol integratsiyalashgan davlatlardan biriga aylandi. Ochiq iqtisodiy siyosatni amalga oshirish, xalqaro hamkorlikni kengaytirish, sarmoyaviy muhitni yaxshilash borasida amalga oshirilayotgan izchil chora-tadbirlar natijasida mamlakatimiz iqtisodiy taraqqiyotning yangi bosqichiga qadam qo'ydi. "O'zbekiston – 2030 strategiyasi"da xalqaro iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtirish, tashqi savdoni erkinlashtirish, xorijiy sarmoyalarni jalb etish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. So'nggi yillarda O'zbekiston Markaziy Osiyo mintaqasidagi eng ochiq va kooperativ iqtisodiyotga ega davlatlardan biri sifatida tan olindi. Mamlakatimiz xalqaro tashkilotlar va iqtisodiy ittifoqlar bilan o'zaro manfaatli hamkorlikni kengaytirmoqda. Xususan, O'zbekiston Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi (YEOI) bilan kuzatuvchi sifatida faol hamkorlik qilmoqda, bu esa bojxona siyosatini muvofiqlashtirish, transport-logistika tizimini rivojlantirish, tovar ayirboshlash hajmini oshirishga xizmat qilmoqda. Ayni vaqtda Jahon savdo tashkilotiga (JST) a'zo bo'lish bo'yicha muzokaralar yakuniga yetmoqda. JSTga a'zolik O'zbekiston uchun barqaror xalqaro savdo qoidalariga asoslangan raqobat muhitini yaratadi va bozorlarni kengaytirish uchun asos yaratadi. O'zbekiston o'zining tashqi iqtisodiy siyosati doirasida Xitoy, Koreya Respublikasi, Turkiya, BAA, Rossiya Federatsiyasi, Yevropa Ittifoqi davlatlari bilan yirik sarmoyaviy loyihalarni amalga oshirmoqda. Xususan, infratuzilma, energetika, kimyo sanoati, transport, axborot texnologiyalari, qishloq xo'jaligi sohalarida strategik sheriklik mustahkamlanmoqda.

2024-yilda O'zbekistonga kiritilgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar 9,8 milliard AQSH dollarini tashkil etdi, bu 2022-yilga nisbatan 1,4 barobar ko'p. Xususan, Xitoy va Koreya sarmoyalari umumiy to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmining 40 foizini tashkil etgan bo'lsa, sanoat, energetika va logistika sohalarida Yevropa Ittifoqi va Turkiya sarmoyalari yetakchilik qilmoqda.

Eksport geografiyasini kengaytirish ham integratsiyaning muhim ko'rsatkichidir. 2024-yil yakuniga ko'ra O'zbekiston eksporti hajmi 26 milliard dollarga yetdi, eksport tarkibida qayta ishlangan mahsulotlar ulushi esa 38 foizga oshdi. Bu xomashyodan tayyor mahsulotga o'tish bo'yicha mamlakatimiz strategiyasining samaradorligini ko'rsatadi. O'zbekiston xalqaro moliya institutlari bilan ham hamkorlikni chuqurlashtirmoqda. Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki bilan hamkorlikda qator infratuzilma va ijtimoiy loyihalar amalga oshirilmoqda. Bu mamlakatning moliyaviy barqarorligini mustahkamlaydi, yangi ish o'rinlari yaratishga ko'maklashadi, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantiradi.

Bundan tashqari, O'zbekiston tashqi iqtisodiy siyosatida mintaqaviy transport-kommunikatsiya loyihalari alohida o'rin tutadi. Xususan, "Toshkent-Andijon-O'sh-Irkeshtom-Qashg'ar" avtomobil yo'li, Transafg'on temir yo'li, Kaspiy transport yo'lagi kabi loyihalar mamlakatimizga jahon savdo tarmoqlariga chiqish imkonini beradi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, O'zbekistonning xalqaro iqtisodiy integratsiya siyosati nafaqat tashqi savdo va investitsiyalar hajmini oshirish, balki milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, yangi texnologiyalar va bilimlarni jalb etishga ham xizmat qilmoqda. Shu tariqa, mamlakatimiz jahon iqtisodiy tizimida barqaror va ishonchli sherik sifatidagi mavqeini tobora mustahkamlab bormoqda.

3. Muammolar va to'siqlar.

O'zbekistonning iqtisodiy modernizatsiyasi va xalqaro integratsiyalashuvi izchil davom etayotganiga qaramay, qator tizimli muammo va to'siqlar saqlanib

qolmoqda. Bu masalalar mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi, investitsion jozibadorligi va xalqaro raqobatbardoshligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Birinchidan, innovatsion faollikning pastligi iqtisodiyotni modernizatsiya qilishning asosiy cheklovlaridan biridir. Aksariyat korxonalar ishlab chiqarish jarayonlarida ilg'or texnologiyalardan yetarli darajada foydalanmaydi. Ilmiy-tadqiqot va ishlanmalarning xususiy sektor bilan integratsiyalashuvining sustligi tadqiqot va ishlanmalarning ishlab chiqarish jarayonlariga to'liq joriy etilmasligiga olib keladi. Bu mahsulot sifati va raqobatbardoshligiga salbiy ta'sir qiladi.

Ikkinchidan, raqamli infratuzilmaning notekis rivojlanishi ham iqtisodiy islohotlarni to'liq amalga oshirishga to'sqinlik qilmoqda. Yirik shaharlarda raqamli xizmatlar jadal rivojlanishiga qaramasdan, ayrim chekka hududlarda internet va IT infratuzilmasi yetarli emasligicha qolmoqda. Bu mintaqalar bo'ylab raqamli iqtisodiyotning notekis rivojlanishiga olib keladi.

Uchinchidan, byurokratik to'siqlar va institutlarning samarasizligi ham iqtisodiy integratsiyani sekinlashtiruvchi omillardir. Alohida tartib-qoidalarning murakkabligi, hujjatlarning haddan tashqari ko'pligi, qaror qabul qilishdagi kechikishlar xorijiy investorlar uchun noqulay sharoit yaratadi. Bundan tashqari, me'yoriy-huquqiy bazaning tez-tez o'zgarishi biznes jarayonlarining barqarorligini ta'minlashni qiyinlashtiradi.

To'rtinchidan, kadrlar etishmasligi zamonaviy ishlab chiqarish va boshqaruv tizimlariga o'tishga jiddiy to'siq bo'lmoqda. Ko'pgina sohalarda yuqori texnologiyalarga ixtisoslashgan muhandislar, IT-mutaxassislar va iqtisodchilar yetishmaydi. Bu holat milliy mehnat bozorida iqtidor nomutanosibligini keltirib chiqaradi. Shu bois ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, amaliyotga yo'naltirilgan kasbiy tayyorgarlikni kuchaytirish muhim ahamiyatga ega.

Beshinchidan, eksport bozorlarida raqobatning kuchayishi O'zbekistondan yangi strategik yondashuvlarni talab qiladi. Mamlakatning asosiy eksporti xomashyo va yarim tayyor mahsulotlarga bog'liqligicha qolmoqda. O'zgaruvchan jahon bozori sharoitida yuqori qo'shimcha qiymatga ega tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish, brend yaratish, logistika tizimlarini modernizatsiya qilish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bu vazifalarni yengish uchun iqtisodiy siyosatda ilmiy-texnikaviy innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash, ilmiy-tadqiqot institutlari va ishlab chiqarish korxonalari o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash, kadrlar tayyorlash tizimini zamonaviy kompetensiyalarga qayta yo'naltirish, xalqaro ta'lim va texnologik hamkorlikni rivojlantirish zarur. Bundan tashqari, xususiy sektorda innovatsion tashabbuslarni rag'batlantirish, davlat-xususiy sheriklik asosida yangi texnologiya markazlarini tashkil etish dolzarb vazifalardan iborat.

4. Yechimlar va istiqbollar.

O'zbekiston milliy iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish, modernizatsiya jarayonlarini jadallashtirish, xalqaro integratsiyani chuqurlashtirish uchun kompleks, tizimli va innovatsion yondashuv zarur. Bu borada amalga oshirilayotgan islohotlar nafaqat iqtisodiy o'sishni jadallashtirish, balki mamlakatning barqaror rivojlanishi va iqtisodiy suverenitetini ham ta'minlaydi.

Birinchidan, innovatsion sanoat modernizatsiyasi ustuvor hisoblanadi. Yangi texnologiyalarni joriy etish, raqamli ishlab chiqarish tizimlarini rivojlantirish, "aqli sanoat" tamoyillarini joriy etish ishlab chiqarish zanjirlarida yuqori qo'shimcha qiymat

yaratish imkonini beradi. Bunga erishish uchun davlat-xususiy sheriklik asosida texnoparklar, innovatsion markazlar, startup ekotizimlarini kengaytirish zarur.

Ikkinchidan, "yashil" texnologiyalarni keng joriy etish barqaror rivojlanish siyosatining ajralmas qismi hisoblanadi. Energiya tejankor ishlab chiqarish, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish, chiqindisiz ishlab chiqarish texnologiyalarini joriy etish ekologik xavfsizlikni ta'minlaydi va iqtisodiy samaradorlikni oshiradi. "Yashil O'zbekiston – 2030" dasturi doirasida ekologik toza sanoat korxonalari uchun soliq imtiyozlari va investisiyalarni rag'batlantirish tizimini kengaytirish zarur. Uchinchidan, xalqaro iqtisodiy hamkorlikni kengaytirish va diversifikatsiya qilish O'zbekistonning jahon iqtisodiy tizimidagi rolini mustahkamlaydi. Jahon savdo tashkilotiga (JST) a'zo bo'lish jarayonini yakunlash, mintaqaviy transport yo'laklarini rivojlantirish, eksport geografiasini kengaytirish, xorijiy investorlar uchun qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, texnologik hamkorlikni chuqurlashtirish uchun Yevropa, Osiyo, Yaqin Sharq mamlakatlari bilan qo'shma innovatsion loyihalarni yo'lga qo'yish zarur.

To'rtinchidan, kadrlar tayyorlash tizimini modernizatsiya qilish va uni xalqaro mehnat standartlariga moslashtirish zarur. Raqamli iqtisodiyot, muhandislik, logistika, marketing va menejment bo'yicha yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash uchun ta'lim muassasalari, ilmiy markazlar va biznes sohasi o'rtasidagi yaqin hamkorlik zarur. Dual ta'lim tizimlari, amaliyotga yo'naltirilgan o'quv dasturlari va xalqaro sertifikatlash mexanizmlarini keng joriy etish raqobatbardosh kadrlar yaratishga yordam beradi.

Beshinchidan, institutsional islohotlarni chuqurlashtirish orqali iqtisodiyotni boshqarish tizimining samaradorligini oshirish mumkin. Shu munosabat bilan davlat organlari faoliyatida shaffoflik, hisobdorlik va raqamli boshqaruv tamoyillarini joriy etish, byurokratik to'siqlarni kamaytirish, investisiya va eksport jarayonlarini soddalashtirish zarur.

Yuqorida qayd etilgan yo'nalishlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish natijasida O'zbekiston pirovardida barqaror iqtisodiy o'sish, raqobatbardosh sanoat, ko'p tarmoqli eksport va innovatsion iqtisodiy modelga asoslangan taraqqiyotga erishadi. Buning natijasida mamlakat nafaqat mintaqaviy, balki jahon iqtisodiy tizimining faol ishtirokchisiga aylanadi.

XULOSA

O'zbekiston milliy iqtisodiyotini modernizatsiya qilish va xalqaro integratsiyani chuqurlashtirish jarayoni izchil davom etmoqda. Keyingi yillarda amalga oshirilayotgan keng ko'lami islohotlar mamlakatimiz iqtisodiy barqarorligini ta'minlash, raqobatbardoshligini oshirish, xalqaro maydondagi ta'sirini kuchaytirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. "O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida modernizatsiya jarayonlari jadallashib, sanoat ishlab chiqarishi kengayib, xizmat ko'rsatish sohasi ulushi ko'paydi, raqamli texnologiyalarni joriy etish jadallashtirildi.

Qolaversa, O'zbekiston o'zining xalqaro iqtisodiy integratsiya siyosati natijasida tashqi iqtisodiy aloqalari geografiasini kengaytirdi, yangi sarmoya oqimini jalb qildi, mintaqaviy hamkorlikda muhim o'rinni egalladi. Xorijiy sarmoyadorlar uchun qulay ishbilarmonlik muhiti yaratilgani, JSTga a'zo bo'lish jarayonining jadallashishi, Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikning

kengayayotgani mamlakatimizning jahon iqtisodiy tizimiga faol integratsiyalashuvini ta'minlamoqda.

Biroq, mavjud muammolar – innovatsion faollikning pastligi, raqamli infratuzilmaning notekis rivojlanishi, kadrlar resurslarining yetarli emasligi va eksportda xom ashyoning yuqori ulushi dolzarbligicha qolmoqda. Shu bois O'zbekistonning yaqin istiqboldagi asosiy vazifalari ilmiy-texnikaviy innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash, ta'lim va ishlab chiqarish o'rtasidagi aloqani mustahkamlash, yashil texnologiyalarni keng joriy etish, institutsional islohotlarni chuqurlashtirishdan iborat. Uzoq muddatli istiqbolda innovatsion modernizatsiya, ilmiy salohiyatni mustahkamlash va xalqaro hamkorlikni yanada rivojlantirish orqali O'zbekiston nafaqat mintaqaviy iqtisodiy markaz, balki barqaror rivojlanish modelini amalga oshirishda global o'yinchiga aylanish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu mamlakatimiz iqtisodiy suverenitetini mustahkamlash, aholi farovonligini yuksaltirish, "O'zbekiston – 2030" strategiyasida belgilangan maqsadlarga izchil erishish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Dilroz, R. Z. (2025). O'zbekistondagi iqtisodiy islohotlar va ularning natijalari. Лучшие интеллектуальные исследования, 43(1), 213-222.
2. Maksudov, M., & Kuchkorova, R. (2024). Leveraging artificial intelligence in marketing research: Paradigms, potentials, and pitfalls. Publishing House "Baltija Publishing.
3. Maksudov, M. (2025). Professional savdoda muvaffaqiyatli muzokaralar tasnifi. Nordic_Press, 7(0007).
4. Habibjonov, U. (2025). Segmentatsiyaning mohiyati va maqsadi. Nordic_Press, 7(0007).
5. Ikromjon o'g'li, T. I. (2024). O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi: omillar, natijalar va istiqbollari. The best student of the CIS, 1(1).
6. Habibjonov, U. (2025). Rejalashtirib sotish jarayonining umumiy tavsifi. Nordic_Press, 7(0007).
7. Maxamatjanovich, X. F., & Sherzod o'g'li, A. S. (2025). O'zbekiston va Markaziy Osiyo: mintaqaviy iqtisodiy integratsiya imkoniyatlari. Modern education and development, 26(2), 350-355.